

KICHIK MAKTAB YOSHI DAVRIDAGI BOLALARNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Haqnazarova Sevara G'ofurovna

Toshkent shahar Yangihayot tumani 330-maktab psixologi

Annotatsiya. Ushbu maqolada kichik maktab yosh xususiyatlari, ularning psixologiyasi, bilish jarayonlari, irodaviy sifatlari, shaxslararo munosabati va muloqotchanligi, o'qish faoliyati kabi asosiy jihatlari hamda farzand tarbiyasi haqida aytib o'tilgan fikrlar bilan hamtanishib chiqishingiz mumkin.

Kalit so'zlar: kichik maktab yoshi, bola, diqqat, xarakter, shaxslararo munosabat, nutq, farzand tarbiyasi.

Har bir farzand yurt ravnaqi uchun asosiy tayanchdir. Bolaning kelajakda barkamol yetuk shaxs bo'lib yetishishida bilim savodida, tarbiyaviy sohasida ota-ona va o'qituvchilarning roli benihoyat katta. Bolaning qiziqishlari hamda qobiliyatlarini shakllantirish har bir insoning burchidir. Hozirgi kunda yosh avlodlarimiz uchun juda ko'plab sharoitlar yaratilmoqda. Ularning komil shaxs bo'lib yetishishlari uchun shart – sharoitlar yaratilishi e'tibor qaratilmoqda. Kichik yoshdagi o'quvchilarning 7-8 yoshdagi bolalar bo'lib, ular boshlang'ich sinf o'quvchilari hisoblanadi.

Bolalarning maktabda muvaffaqiyatli o'qishi ko'p jihatdan ularning maktabga tayyorgarlik darajasiga bog'liqdir. Kichik maktab yoshida avvalo bilish sohalari, so'ngra esa emotsional motivatsiyon yo'nalish bo'yicha yangi shaxsiy hayot boshlanadi. Ularning psixikasida ham sezilarli o'zgarishlar yuz beradi. O'qish o'quvchining vazifasi va ijtimoiy burchiga aylanadi. Mashg'ulot jarayonida bolada goh uzoqqa, goh yaqiniga qarashga ehtiyoj boshlanadi. Nutqning ma'lum darajada rivojlanganligi deyilganda, bolaning dunyoqarashi, jonli tabiati, insonlarning mehnati va mashaqqatlari haqidagi bilimlari tushuniladi. Ular qanchalik boy bo'lsa bolalarda ham shunchalik nutqiy qobiliyat shakllangan bo'ladi. Keyinchalik kichik maktab o'quvchilari ranglarni va rang tuslarini seza boshlaydilar. 6-7 yoshli maktab muhitiga tayyor bolalarda "Men shuni hohlayman"

motividan "Men shuni bajarishim kerak "motivi ustunlik qila boshlaydi.E.I.Ignatevning tekshirishlari shuni ko'rsatadiki,asosiy rang tomonlarining tusini ajratish murakkab ishdir.Shuning uchun bolalarnibunga o'rgatish kerak.Diqqat o'qish jarayonining zarur sharti hisoblanadi.Idrokning to'raligi, tezligi hamda to'g'riligi diqqatga bo'liqdir.Bu yoshdagi bolalarda kitob o'qishlari uchun yoxud turli xil berilgan misol, topshiriqlarni bajarish uchun diqqat asosiy o'rinni egallaydi.Kichik yoshdagi o'quvchilarda ixtiyorsiz diqqat yuqori turadi.Diqqatning bu turi B.T.Annoevning yozishicha, katta odamlar bilan bolaning birgalikdagi faoliyati va tarbiyaning mahsuli bo'lib hisoblanadi.Ixtiyoriy diqqatning yanada yaxshiroq o'sishi maktab yoshidagi bolalarda idrok va tafakkurning tarbiyalanishiga bog'liq.Bu yoshdagi bolalaravvalo maktabga jismoniy jihatdan tayyor bo'lishi kerak.Kichik maktab yoshida tasavvur,tafakkur hamda nutq umumlashadi.Nutq asosidagi tarbiya jarayonida bolada soda axloq me'yorlari va qoidalar egallanadi.Bolada uning atrofdagilar bilan xilma-xil munosabatlar yuzaga kelib,bu munosabatlar asosida esa turli xil motivlar yotadi.Kichik maktab yoshidagi bolalarda shaxs rivojlanishining asosiy o'zgarishlari,ularning o'z shaxsiy sifatlari,layoqatlari, muvaffaqiyat va muvaffaqiyatsizliklarini anglash, o'zini-o'zi anglash kabi hislarning yuzaga kelishi namoyon bo'ladi.Kichik maktab yosh davrida shaxslararo munosabatlarning shakllanishi –bu bolalar o'zlarining ilk ijtimoiy tajribalari va aloqalarini hosil qila boshlaydigan muhim bosqichi hisoblanadi.Kichik maktab yoshi —bolalar uchun muhim rivojlanish davri bo'lib, ularning aqliy, emotsional, ijtimoiy va jismoniy jihatlarini shakllantiradi.

Bu davrda bolalar mantiqiy fikrlash, o'qish-yozish, matematik ko'nikmalarni o'zlashtiradi, shuningdek, o'z his-tuyg'ularini tushunishga va ifodalashga o'rganadilar. Ijtimoiy o'zaro munosabatlar va guruhda ishlash muhim ahamiyatga ega, shuningdek, jismoniy faollik va motorik qobiliyatlar rivojlanadi. Bu jarayonlar bolalarning o'z-o'zini anglash, mas'uliyat va o'zaro hurmatni o'rganishlariga yordam beradi. Kichik maktab yoshi bolalarning asosiy hayotiy ko'nikmalarini rivojlantirish uchun mustahkam poydevor yaratadi.Asosan o'qish faoliyati kichik maktab yoshi o'quvchilarining aql-idroki,sezigirliigi,kuzatuvchanligini,eslab qolish va esga tushurish

imkoniyatlarining rivojlanishi uchun muhim shart sharoitlarni yaratadi desak hammubolaga bõlmaydi. Kichik maktab yoshi davridagi bolalarda o`qish jarayoniga hamda shu bilan burgalikda katta hayotga tayyorlov jarayonlari ham amalga oshirilib boradi. Shuni ta'kidlash lozimki, bu davrdagi bolalarga qanchalik ko`p e'tibor berilsa, o`qish faoliyatiga moslashish jarayonida ularga ko`proq vaqt ajratilsa, ularda yuzaga keladigan qiyinchiliklarni birgalikda hal qilishga ko`maklashishsa ya'ni bolalar shu davrda hech bir inqirozsiz o'tsa kelajakka shunchalik umid ko`zi bilan qaraydigan barkamol shaxs bo'lib yetishadi. Xalqimizda "bola boshidan" degan naqlar ham bejizga aytib o'tilmagan. Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkin-ki, ota-ona tomonidan vaqtida berilgan e'tibor bola hayotida misli kutilmagan o'zgarishlarni yuzaga chiqarishi mumkin. Bolalarning komil inson bõlib shakllanishida atrof olamdagi narsava predmetlarning ham ta'siri yo`q emas. Donishmand ota bobolarimizning farzand tarbiyasidagi fikrlari ham bugungi kunda ham o`z ahamiyatini yo`qotmagan. Yoshlikda olingan bilimtoshga bitilgan naqsh kabidir.

Shunday qilib, kichik maktab yoshida bog'lcha yoshi davriga nisbatan skelet-muskul sistemasining mustahkamlanishi; yurak-qon tomirlari faoliyatining barqarorlashishi; qo'zg'alish va tormozlanish kabi nerv jarayonlarining muvozanatlashishi ro'y beradi. Bulaming hammasi esa maktab hayotining, ya'ni boladan jismoniy chidam. Aqliv quvvatni talab etuvchi alohida faoliyat - o'quv faoliyatining boshlanishi uchun juda muhimdir. Shuning uchun ham kichik maktab yoshidagi bolaning psixologik. Anatomik-fiziologik xususiyatlarini hisobga olgan holda o'quv-tarbiyaviy jaravonni tashkil etish lozim bo'lib, bu esa kevingi davrlarda bolaning psixik rivojlanishi, bilimlarni o'zlashtirishi uchun muhim shartlardan biri bo'lib hisoblanadi.

Avval aytib o'tganimizdek, psixik rivojlanishning har bir bosqichi faoliyatning asosiy, yetakchi turi bilan xarakterlanadi. Maktabgacha yosh davrida o'yin faoliyati yetakchi faoliyat turi bolib, bu yoshdagi bolalar o'qishsa, mehnat qilishsa ham, banbir ulaming asosiy shug'ullanadigan ishlari - rolli o'yinlardir. o'vinda xayol protsessi, simvollar qo'lashni olrganish rivojlanadi. Bular esa bolaning maktabga tayyorligini xarakterlovchi asosiy momentlardir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Kayumova, G., & Suyunova, D. (2023). THE ROLE OF PARENTS AND TEACHERS IN THE DISCLOSURE OF A CHILD'S ABILITY. *Models and methods in modern science*, 2(1), 133-135.
2. Narzullayevna, K. G. (2022). Psychological effects of motivation of marriage in young people on family strength. *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal*, 12(6), 301-303.
3. Xaydarov F.I., Xalilova N.I. "Umumiy psixologiya". -Toshkent: Mumtoz soz, 2010. – 97 b
4. G'oziev E.G'. *Ontogenez psixologiyasi* -Toshkent: Noshir, 2010. -73